TOSHKENT VILOYATI OHANGARON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 18-dekabr | 412-10-134-Q/24 | Ohangaron tuman hokimligi

Ohangaron tumanida 2025-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2025-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik, jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan yuk va yo‘lovchi tashuvchi transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2025-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari qo‘yidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar, shuningdek o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli, xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari, bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi—shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’iy nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keying o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1-martdan - 30-iyungacha;

ikkinchi marta – 1-sentabrdan - 31- oktabrgacha o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvardan – 31-dekabrgacha o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa

tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari Sh.Azamatov va S.Shoqosimov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.M.Madirimov**

Ohangaron tuman hokimining
2024-yil 18-dekabrdagi
412-10-134-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ohangaron tumanida transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi
T A R K I B I

Komissiya raisi :

I.M.Sharipov		Ohangaron tuman Ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i

Komissiya a’zolari:

F. To‘hsonov	-	tuman Transport boshqarmasi sektor mudiri
A.Y.Bisembayev	-	Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari
SH.Holboyev		tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi boshlig‘i

Komissiya kotibi:

N.H.Mambetov	-	Tuman Ichki ishlar bo‘limi YHXB katta inspektori

Ohangaron tuman hokimining
2024-yil 18-dekabrdagi
412-10-134-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Ohangaron tumanida 2025-yilda majburiy texnik ko‘rikka taqdim etiladigan avtokorxonalar, ulardagi avtomototransport vositalari soni va texnik ko‘rikka taqdim etish muddatlari

J A D V A L I

t/r	Avtokorxona nomi	Vazirlik kodi	Korxonadagi transport vositalari soni	Korxonadagi mototransport vositalari soni	Tirkamalar soni	Yarim tirkamalar soni	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan sana va vaqti	Texnik ko‘rik o‘tqaziladigan joy	Izoh
1	"Eyvalek maxsus temir beton" MCHJ	03703	20				05.03.2025	Korxonada	
2	"Mega Trans Ekspress" MCHJ	09999	18		3	6	06.03.2025	YHXBda	
3	"Gulobod meva sabzavot va chorva"	09999	7				07.03.2025	YHXBda	
4	UYA- 64\69	08354	7				07.03.2025	YHXBda	
5	"Barokat sipro" MCHJ	09999	17		1	8	07.03.2025	YHXBda	
6	"Angren shakar" MCHJ	09999	24				10.03.2025	YHXBda	
7	"Sanoat taraqqiyot bunyod" MCHJ	09999	2				12.03.2025	YHXBda	
8	"Aleks Injenering" MCHJ	09999	3				12.03.2025	YHXBda	
9	"Nurobod farm agro" x\k	09999	1				12.03.2025	YHXBda	

10	"Ohangaron oltin vodiy" x\k	09999	1				12.03.2025	Korxonada	
11	"Alp Xusan nur" x\k	09999	2				13.03.2025	YHXBda	
12	"Imsin ona" f\x	06444	2				13.03.2025	YHXBda	
13	"Al Basir Parranda" MCHJ	09999	2				13.03.2025	Korxonada	
14	"Obiz Tunkent bo'stoni" MCHJ	09999	3				14.03.2025	YHXBda	
15	"Ohangaron Chicken industry" MCHJ	09999	5				14.03.2025	YHXBda	
16	IIB qo'riqlash xizmati	08354	6				15.03.2025	IIB da	
17	"G‘aniyev Ashurboy” MCHJ	09999	4				16.03.2025	YHXBda	
18	"Novotech industriyes" MCHJ	09999	7		2		16.03.2025	YHXBda	
19	"Dilovar raxnoma" f\x	06444	3				16.03.2025	YHXBda	
20	"Ohangaron naslli parranda" MCHJ	09999	1				16.03.2025	YHXBda	
21	"Mobil uz group" MCHJ	09999	1				16.03.2025	YHXBda	
22	"Ohangaron metan gaz" MCHJ	09999	1				19.03.2025	YHXBda	
23	"Ertoshsoy GES" u\k	09999	2				19.03.2025	YHXBda	
24	"Kushon dizayn qurilish" MCHJ	09999	2				19.03.2025	YHXBda	
25	Tuman elektr tarmog‘i	06444	6				19.03.2025	Korxonada	
26	"Toza hudud" DUK	01005	6				20.03.2025	YHXBda	
27	"Ravshan avto driver" MCHJ	09999	4			2	20.03.2025	YHXBda	
28	"Qaldirg‘och" f\x	06444	1				21.03.2025	YHXBda	
29	"Do'stlik yo'li obod	06444	5				21.03.2025	YHXBda	

	eram" f\x								
30	"Semurg" f\x	06444	1				22.03.2025	YHXBda	
31	"Dilnavoz" x\f	06444	3				22.03.2025	YHXBda	
32	"Ohangaron nurli kelajak" f\x	06444	1				22.03.2025	Korxona	
33	"Tulagan Oybek Anorboy hamkor" f\x	06444	2				22.03.2025	YHXBda	
34	"Energo issiqlik montaj" u\k	06444	1				23.03.2025	YHXBda	
35	"Buviniso Olima" f\x	06444	2				23.03.2025	YHXBda	
36	"Ohangaron parranda sanoat" MCHJ	09999	2				26.03.2025	YHXBda	
37	"Bekmurod" f\x	06444	1				26.03.2025	YHXBda	
38	"Bunyodkor kushon qurilish" MCHJ	09999	8				27.03.2025	YHXBda	
39	"Al najot aziya" MCHJ	09999	2		1		27.03.2025	YHXBda	
40	Ohangaron tuman soliq inpeksiyasi	09999	1				28.03.2025	YHXBda	
41	"Ohang Maks invest savdo" MCHJ	09999	1				28.03.2025	YHXBda	
42	"Shodiyona baraka savdo" MCHJ	09999	1				28.03.2025	YHXBda	
43	"Telov non" MCHJ	09999	3				29.03.2025	YHXBda	
44	Transport va servis KXK	03903	1				31.03.2025	YHXBda	
45	"Radius-RGR" MCHJ	09999	5				01.04.2025	YHXBda	
46	Obodonlashtirish boshqarmasi	06444	5				01.04.2025	YHXBda	
47	"Aslbek baraka fayz savdo" MCHJ	09999	2				02.04.2025	YHXBda	

48	"Ohangaron Grand avto servis" MCHJ	09999	5		2		02.04.2025	YHXBda	
49	"Sardor oqtepa nuri" f\x	06444	1				03.04.2025	YHXBda	
50	"Rejavali fayz" f\x	06444	4			1	03.04.2025	YHXBda	
51	"Farzona chashma nur" f\x	06444	1				03.04.2025	YHXBda	
52	"Chikken meat line" MCHJ	09999	3				04.04.2025	YHXBda	
53	"Ohangaron Bunyodkor qurilish" MCHJ	09999	2				07.04.2025	YHXBda	
54	"Alo Temurbek" MC HJ	09999	1				07.04.2025	YHXBda	
55	"Chetsuv Elyor Fayz" MCHJ	09999	1				08.04.2025	YHXBda	
56	"Ohangaron Gidro spets stroy" MCHJ	06444	12			1	08.04.2025	YHXBda	
57	"Musa aksu" x\k	09999	1				09.04.2025	YHXBda	
58	"Guang sheng" x\k	09999	1				10.04.2025	YHXBda	
59	"Gazoblok biznes" MCHJ	09999	1				10.04.2025	YHXBda	
60	Tuman Yong‘in xavfsizligi	08354	3				11.04.2025	YHXBda	
61	"Navbahor g'isht" MCHJ	09999	1				11.04.2025	YHXBda	
62	"Tashkent xebbei fayz" MCHJ	09999	1				11.04.2025	YHXBda	
63	"Ohang pure petrol" MCHJ	09999	1				11.04.2025	YHXBda	
64	"Shodibek asl	09999	7		2		12.04.2025	YHXBda	

	texnikasi" MCHJ								
65	"Maxmudova asl zamin" d\x	06464	1				12.04.2025	YHXBda	
66	"Xoji Akbar" f\x	06444	2				15.04.2025	YHXBda	
67	"Darxon" f\x	06444	1				15.04.2025	YHXBda	
68	"Gulshan mexri" x\f	09999	1				15.04.2025	YHXBda	
69	"Radius RGR" MCHJ	09999	5				16.04.2025	YHXBda	
70	"Shaxzod kamar" f\x	06444	1				16.04.2025	Korxonada	
71	"Metan Propan Ohangaron" MCHJ	09999	4				17.04.2025	YHXBda	
72	"Asl Abdurafiq ota bo'stoni" d\x	06464	2				17.04. 2025	YHXBda	
73	"Agro Aleks hamkori" f\x	09999	1				17.04. 2025	YHXBda	
74	"Soxibkor" f\x	06444	1				18.04. 2025	YHXBda	
75	Gidromontaj U\K	09999	4				18.04. 2025	YHXBda	
76	"Tyan shan kuan" MCHJ	09999	11			4	19.04. 2025	YHXBda	
77	"Sanjar asl chorva baraka" MCHJ	09999	1				19.04. 2025	Korxonada	
78	"Laziz" MCHJ	06444	2				20.04. 2025	YHXBda	
79	"Dovut trans" MCHJ	06444	9				20.04. 2025	YHXBda	
80	"Abduqodir baxtli kelajak" f/x	06444	1				20.04. 2025	YHXBda	
81	"Bexruz Diyorbek Xumo" MCHJ	09999	1				23.04. 2025	YHXBda	
82	"Boytup" f/x	06444	1				23.04. 2025	YHXBda	
83	"Jaxongir Ohangaron" MCHJ	09999	3				23.04. 2025	YHXBda	
84	"Universal strong group" MCHJ	09999	1				24.04. 2025	YHXBda	

85	"Ko'k saroy" MCHJ	09999	1				25.04. 2025	YHXBda	
86	"Qora va rangli metal" MCHJ	09999	1				25.04.2025	Korxonada	
87	"Fadis gaz servis" x\k	09999	1				25.04.2025	Korxonada	
88	"Muzaffar agro group" f\x	09999	4				25.04.2025	YHXBda	
89	"Madina ohang agro" MCHJ	09999	1				28.04.2025	YHXBda	
90	"Sirojiddin mirzo" x\k	09999	2				28.04.2025	YHXBda	
91	"Vodiy baraka paranda"MCHJ	09999	3				29.04.2025	YHXBda	
92	"Almatboy farovon" f\x	09999	1				29.04.2025	YHXBda	
93	"Xidoyat va Ofiyat" f\x	09999	1				30.04.2025	YHXBda	
94	"Erkinboy nuri ziyo" MCHJ	09999	1				01.05.2025	YHXBda	
95	"Tabiat bog'i eram" f\x	09999	1				01.05.2025	YHXBda	
96	"Sodiqjon biznes trans" MCHJ	06444	1				02.05.2025	YHXBda	
97	"Sherbek Ulug‘bek fayz" f\x	09999	1				02.05.2025	YHXBda	
98	"Telov taminot savdo" MCHJ	09999	1				02.05.2025	YHXBda	
99	"Anom" f\x	06444	1				02.05.2025	YHXBda	
100	"Kelajak imkon savdo" MCHJ	09999	1				02.05.2025	YHXBda	
101	"Greyen Valley Gardens" MCHJ	09999	2				02.05.2025	YHXBda	
102	"Rizo asr qurilish" MCHJ	06444	2				03.05.2025	YHXBda	

103	Ohangaron Veterinariya	03873	1				06.05.2025	YHXBda	
104	"Usta Raxmon kelajagi" f\x	06444	1				06.05.2025	YHXBda	
105	Qishloq va suv xo‘jaligi	73554	1				07.05.2025	YHXBda	
106	"Yorqin Nodirabegim savdo" MCHJ	09999	1				07.05.2025	YHXBda	
107	"Ohangaron Shodiyev Aziz" f\x	06444	1				08.05.2025	YHXBda	
108	"Sayriddin" f\x	09999	1				08.05.2025	YHXBda	
109	"Asl Anvar chorvadori"d\x	06464	1				09.05.2025	YHXBda	
110	"Taraqqiyot" f\x	09999	3				09.05.2025	Korxonada	
111	"Ravshan shodli ziyosi" f\x	06444	3				10.05.2025	Korxonada	
112	"Shodiyona baraka savdo" MCHJ	08344	2				10.05.2025	YHXBda	
113	"Ohangaron intensiv parranda" MCHJ	09999	1				11.05.2025	YHXBda	
114	"Tash prom stal servis" MCHJ	09999	1				14,05,2025	YHXBda	
115	"Marjon Nilu baraka" MCHJ	09999	2				15.05.2025	IIB da	
116	"Axmad-Sherzod" f\x	06444	1				16.05.2025	YHXBda	
117	"Ohangaron namuna fayz" MCHJ	09999	1				19.05.2025	YHXBda	
118	"Ideal Vostok farm" f\x	06444	1				20.05.2025	YHXBda	
119	"Elita trusk kars" MCHJ	09999	3		1		21.05.2025	YHXBda	

120	"Sardor –oq tepa nuri" f\x	06444	1				22.05.2025	YHXBda	
121	"Steyel pipe kompani" MCHJ	09999	1				23.05.2025	YHXBda	
122	"Toshkent maks trans" MCHJ	09999	2				26.05.2025	YHXBda	
123	Ohangaron tuman KQVBB	01005	1				27.05.2025	YHXBda	
124	"Yuksalish baraka fayz" MCHJ	09999	1				28.05.2025	YHXBda	
125	"Ohangaron Rustam agro" MCHJ	09999	4				29.25.2025	YHXBda	
126	"Ml yenergostandard" MCHJ	09999	1				30.05.2025	YHXBda	
127	Irrigatsiya bo‘limi	06444	1				31.05.2025	YHXBda	
128	Ohangaron tuman fermer kengashi	06444	1				02.06.2025	YHXBda	
129	"Cheki Savdogar" MCHJ	09999	1				03.06.2025	YHXBda	
130	"Alanga servis" f/x	06444	1				04.06.2025	YHXBda	
131	"Lazzat latofati' F/X	06444	1				06.06.2025	YHXBda	
132	"Ohangaron oziq-ovqat" MCHJ	09999	1				09.06.2025	YHXBda	
133	"Fayzli qori ota" f/x	06444	1				10.06.2025	YHXBda	
134	"Asl tulpor baraka" f\x	06444	2				11.06.2025	YHXBda	
135	"Ohangaron tomorqa xizmati" MCHJ	09999	1	1			12.06.2025	YHXBda	
136	"Qizil baur" f\x	06444	1				13.06.2025	YHXBda	
137	"Jannat mevalari" f\x	06444	1				14.06.2025	YHXBda	
138	"Sayyoraxon" D F\X	06464	3				17.06.2025	YHXBda	

	Jami		382 ta	1	12	22			